

**Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni
qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.04.2026-yildagi
PQ-130-son**

Qarorga ko'ra, go'sht mahsulotlari narxlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan vaqtinchalik subsidiyalar ajratilishi belgilandi:

2026-yil 1-apreldan 2026-yil 1-avgustga qadar tadbirkorlarga mol va qo'y go'shtini import qilishda, ularni havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizi, biroq har bir kilogramm go'sht uchun 0,8 AQSH dollaridan oshmagan miqdorda;

2026-yil 1-apreldan 2026-yil 31-dekabrqa qadar xorijiy davlatlardan havo transporti orqali import qilingan nasldor qoramol qiymatining 10 foizi, biroq har bir bosh qoramol uchun 4 mln so'mdan oshmagan miqdorda.

Mazkur qarorga muvofiq subsidiyalar Agrar sohada to'lovlar agentligi tomonidan moliyalashtiriladi.